


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**O‘quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro‘yxatga olindi**

№ 2014/00265
2014 yil 20 avgust

**Institut Kengashining
№1-sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 22 avgust)**



**MAXSUS KURS (PENSIYA TA‘MINOTINING DOLZARB
MASALALARI)**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Oliy ta‘limning

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta‘lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta‘lim mutaxassisligi:	5231300	–	Pensiya ishi

Toshkent-2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

- Haydarov A. – TMI, “G‘aznachilik ishi” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Hamdamov Sh.K. – TMI, “G‘aznachilik ishi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

- Haydarov N.H. – Toshkent moliya instituti, ilmiy ishlar bo‘yicha institut prorektori, i.f.d., prof.
Po‘latov D.H. – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i, i.f.n., dots.

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 10 iyundagi 20-sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

A. Botirov

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2014 yil 12 iyundagi 11-sonli qarori).

Fakultet dekani

Sh. Allayarov

Kelishildi:

**O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor**

A.Karimov



KIRISH

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Mamlakatimizda keng ko‘lamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida inson omili va u bilan bog‘liq ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash va bu boradagi ziddiyatlarni bartaraf etishda davlat ijtimoiy ta‘minoti va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan pensiya ta‘minoti muhim ahamiyatga ega. Pensiya ta‘minotining tashkiliy asoslarini mustahqamlash, qonuniy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiy asoslari hamda moliyaviy manbalarini barqarorlashtirishning zarurligi davlat pensiya ta‘minotini boshqarish tizimi oldiga ham ulkan vazifalar qo‘ymokda.

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)”ni o‘qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat pensiya ta‘minotining dolzarb masalalarini, tizimdagi islohatlar, ularning tashqiliy-huquqiy asoslari to‘grisida nazariy va amaliy ma‘lumotlar berish hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o‘z predmetini o‘rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- Pensiya ta‘minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish
- Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta‘minlash va xarajatlarini samaradorligini ta‘minlashning dolzarb masalalarini o‘rganish;
- Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibining hozirgi zamon muammolarini o‘rganish;
- Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar;
- Xorijiy davlatlar pensiya ta‘minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari o‘rganish.

1.2. Fanni o‘zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

“Maxsus kurs (Pensiya ta‘minotining dolzarb masalalari)” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- pensiya ta‘minoti tizimidagi islohatlarning asosiy yo‘nalishlarini;
- pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarini rejalashtirishning dolzarb masalalarini;
- yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibining hozirgi zamon muommolarini;
- xorijiy davlatlar pensiya tizimlari va ularning amaliyoti haqida *tasavvurga ega bo‘ladi*.

1.3. Fanning o‘quv rejasidagi fanlar bilan bog‘liqligi

Mazkur fanni o‘rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta‘lim standartlarida ko‘zda tutilgan iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo‘ladi.

1.4. Fanni o‘qitishda qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

“Maxsus kurs (Pensiya ta’minotining dolzarb masalalari)” fanining *ma’ruza mashg‘ulotlarida* ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o‘qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.
- oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog‘lash):

Ma’lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko‘ra olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O‘rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo‘yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarini beradi.

T-jadval:

Bita kontseptsiya (ma’lumot)ning jihati o‘zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, loyiha, ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikr.

“Maxsus kurs (Pensiya ta’minotining dolzarb masalalari)” fanining amaliyot mashg‘ulotlarida muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo‘yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U magistrantlarni o‘quv jarayonida mashg‘ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog‘ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o‘z fikrlarini aytishga yo‘naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O‘z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakteristikalar algoritmgacha muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Keys stadi.:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

I. “Maxsus kurs (Pensiya ta’minotining dolzarb masalalari)” fanidan o‘qitiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

№	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
Yozgi semestr					
1.	Pensiya ta’minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslari	2	2	-	-
2.	Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash va xarajatlarini samaradorligini ta’minlashning dolzarb masalalari	3	2	-	1
3.	Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibining hozirgi zamon muammolari	3	2	-	1
4.	Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar	3	2	-	1
5.	Xorijiy davlatlar pensiya ta’minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari	3	2	-	1
	Jami	14	10	-	4

2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

2.1.1. Pensiya ta'minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy qullab-quvvatlashning zarurligi, tizimdagi asosiy islohotlarning yo'nalishi. Pensiya jamgarmasining aholini ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishdagi ahamiyati va vazifalari. Pensiya ta'minoti tizimidagi qonuniy-huquqiy hujjatlar. Pensiya ta'minoti tizimidagi qonuniy-huquqiy hujjatlarning asosiy mazmuni va maqsadi. Pensiya tizimi qonunchiligining takomillashuvi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval*.
[A1, A2, A3, A4, A8, A9, Q3, Q4, Q5, Q6]

2.1.2. Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash va xarajatlarini samaradorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi, shakllanish mexanizmi. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi, ularning hozirgi holati va uning tahlili. Iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida Pensiya jamgarmasi daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari. Pensiya jamg'armasi harajatlari samaradorligini ta'minlash. Islohotlarning hozirgi bosqichida Pensiya jamg'armasi xarajatlarini optimallashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval*.
[A1, A2, A4, A8, A9, A10, A12, Q3, Q2, Q5, Q6]

2.1.3. Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to'lash tartibining hozirgi zamon muommolari

Yoshga doir pensiyani olish huquqi. Ish staji to'liq bo'lmagan holda pensiyalarni to'lash. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiyalarni to'lash. Yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash va to'lash tartibi. Hozirgi kundagi yoshga doir pensiyalarni tayinlashning muommolari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval*.

[A1, A2, A3, A8, A9, A11, A12, Q3, Q2, Q5, Q6]

2.1.4. Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar

Davlat ijtimoiy sugurtasining zarurligi va ahamiyati. Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi islohotlarning asosiy yoʻnalishlari. Dafn marosimlari uchun nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohotlar. Bola tugʻulganda beriladigan nafaqalar. Qoʻshimcha dam olish kunlari uchun nafaqa tizimi va undagi islohotlar.

Qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A3, A5, A7, A9, A11, A12, Q3, Q2, Q4, Q6]

2.1.5. Xorijiy davlatlar pensiya taʼminoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini Oʻzbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosat yoʻnalishlari va ularni amalga oshirishga masʼul ijtimoiy institutlar. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari. MDH davlatlari pensiya taʼminoti tizimlarining oʻziga hos xususiyatlari. Bu davlatlar pensiya tizimlaridagi islohotlarning asosiy yoʻnalishlari. Xorijiy mamlakatlar pensiya taʼminoti tizimidagi ijobiy natijalarini Oʻzbekistonda tadbiq etish istiqbollari. Pensiya taʼminotini samarali boshqarishdagi muammo va echimlar.

Qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A5, A7, A9, A11, A12, Q1, Q3, Q2, Q4, Q6]

2. MUSTAQIL TAʼLIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil taʼlim talabani bajaradigan ilmiy izlanishi boʻlib, davlat pensiya taʼminoti tizimini boshqarish haqidagi nazariy bilimlari asosida ilmiy-tadqiqotlarini tashkil etishdagi maxsus kursning biror mavzusini toʻliq oʻzlashtirai va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad – talabani oʻqishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iborat. Mustaqil taʼlim topshiriqlari maʼruza mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrishga qaratilgan. Bundan tashqari, talabalar ayrim nazariy mavzularni oʻquv adabiyotlari yordamida mustaqil oʻzlashtirishlari natijasida referat yoki ilmiy maqolalar tayyorlashlari, ilmiy amaliy konferentsiyalarda ilmiy maʼruzalar qilishlari mumkin. Referat, taqdimot, kollikum tayyorlash, maʼruzalar kafedra tomonidan belgilangan hajmda boʻlishi mumkin.

**“Maxsus kurs (Pensiya ta’minotining dolzarb masalalari)” fani
bo’yicha mustaqil ta’limning mazmuni**

№	Mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzulari	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari
1.	Pensiya ta’minoti tizimining islohotlar va uning tashkiliy-huquqiy asoslari	Referat, taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliyot mashg’ulotida
2.	Pensiya jamg’armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash va xarajatlarini samaradorligini ta’minlashning dolzarb masalalari	Referat, taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliyot mashg’ulotida
3.	Yoshga doir pensiyalarni hisoblash va to’lash tartibining hozirgi zamon muammolari	Referat, taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliyot mashg’ulotida
4.	Davlat ijtimoiy sugurtasi tizimidagi nafaqalar va boshqa nafaqalarni tayinlash tizimidagi islohatlar	Referat, taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliyot mashg’ulotida
5.	Xorijiy davlatlar pensiya ta’minoti tizimlari va ularning ijobiy natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tadbiq etish istiqbollari	Referat, taqdimot tayyorlash	Amaliyot mashg’ulotida

3. REYTING BAHOLASH TIZIMI

3.1. Reyting nazorati jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																		Attestatsiya	Ballar	Saralash ballari	
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40				
JN																						
ON	0-35									0-35										0-35	39	
Σ (JN+ON)	0-70																			0-70		
YaN																			0-30	0-30	0	
Jami	0-70																		0-30	0-100	55	

**Izoh: Semestr haftalari soni ta’lim yo’nalishi(mutaxassislik)ning o’quv rejasi va o’quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.*

3.2 ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-70 (har birida 0-35 /0-35) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-35 /0-35 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

3.3 ON bo'yicha baholash mezonlari

ON 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	ON
<ul style="list-style-type: none">- Maxsus kursni o'rganib, mustaqil xulosa chiqarish va qaror qabul qilish;- Fan bo'yicha ijodiy fikrlay olish;- mustaqil mushohada yuritish;- nazariy bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish;- fanga taalluqli tayanch iboralarning mohiyatini tushunish;- tayanch iboralarni bilish, farqlay olish va mazmunini aytib berish;- fanning umumiy mazmuni, mavzulari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish	60-70
<ul style="list-style-type: none">- mustaqil mushohada yuritish;- nazariy bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish;- fanga taalluqli tayanch iboralarning mohiyatini tushunish;- tayanch iboralarni bilish, farqlay olish va mazmunini aytib berish;- fanning umumiy mazmuni, mavzulari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish	50-69
<ul style="list-style-type: none">- fanga taalluqli tayanch iboralarning mohiyatini tushunish;- tayanch iboralarni bilish, farqlay olish va mazmunini aytib berish;- fanning umumiy mazmuni, mavzulari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish	39-49
<ul style="list-style-type: none">- tayanch iboralarni bilmaslik, farqlay olmaslik va mazmunini ayta olmaslik;- fanning umumiy mazmuni, mavzulari to'g'risida tasavvurga ega bo'lmaslik.	0-38

3.4. YaN ni baholash mezonlari

YaN “Yozma ish” yoki “Test sinovi” shaklida (0-30) ballgacha belgilan mezon asosida yoki majmualiy shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o‘tkaziladi.

3.5 Talabalarning fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Talabalarning fan bo‘yicha bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

Talabaning fanni o‘zlashtirishini nazorat qilish mezonlari	Ballar
Maxsus kurs fani mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda «Maxsus kurs» bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha to‘la bilimga ega. Mashg‘ulotlarda «Maxsus kurs» bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85
Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda «Maxsus kurs» bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	55-70
Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda «Maxsus kurs» bilan bog‘liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-54

4. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA‘MINOTI

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata’lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari va zamonaviy komp’yuter texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, talabalar virtual huquqiy-me’yoriy hujjatlar kutubxonasi tizimi orqali byudjet-moliyaviy qonunchilik yangiliklaridan xabardor bo‘lishlari va o‘qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

Fanni o‘qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo‘yicha ishlab chiqilgan Rowerpoint dasturidagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan, diaproektor va kadaskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida pensiya ta’minoti tizimidagi nazariy va

amaliy jihatlarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

4.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi. T.:Infocom. 2010. – 500 b.
2. Нешчитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издателско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с
3. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorij tajribasi. –T.: “Adolat”. 2009. - 172 b.
4. Qosimova G.A. Budjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007. -148 b.
5. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 202 b.

4.2. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Vahobov A., Malikov T. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010. - 595 b.
2. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.
3. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.
4. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.

5. Internet saytlari:

www.mf.uz

www.gov.uz

www.lex.uz

www.stat.uz

www.pfru.uz

www.undp.uz

www.publicfinance.uz